

Chirchiq shahar 6-umumiy o`rta ta'lim  
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Ergashova Gulchehraning Ona tilidan 4 "A"  
sinfida o'tkazgan

# Ochiq dars ishlanmasi

2013-2014-o'quv yili

dars

**Mavzu:** Undalma {Mustahkamlash}**Maqsadlar:****Talimiy:** o'quvchilarga mavzu borasidagi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mashqlar ishlash va topshiriqlar bajarish jarayonida takomillashtirish.**Tarbiyaviy:** Dunyoqarashini kengaytirish, o'z ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, so'zlashuv madaniyatiga rioya qilishga, o'zaro suhbat jarayonida suhbatdosh fikriga hurmat bilan qarashga o'rgatish.**Rivojlantiruvchi:** og'zaki va yozma nutqni o'stirish, erkin va mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirish.**Dars turi:** o'qitishning "interfaol,, usuli.**Uslub:** aralash, ko'rgazmali.**Jihozlar** kompyuter, multimediya, jadval.**Fanlar bog'likligi:** darsni o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik fanlari bilan uzviy bog'lash.**Darsning borishi.****1Tashkiliy qism:** {Salomlashish, davomatni aniqlash,darsga hozirlik ko'rish}

Darsning asosiy qoidasi o'quvchilarga yana bir bor eslatib o'tiladi.



Mashg'ulot davomida o'quvchilar 3guruhga bo'linadilar.Ular o'z guruhlariga "Bilag'onlar,, , "Chaqqonlar,, , "Topqirlar,, deya nom qo'yishadi. Nomlariga mos shior tanlaydilar

O'qituvchi "Aqliy hujum,, usuli orqali fikrlashga chorlaydi.

2 Uy vazifasini tekshirish, 71-mashq


\_\_Oyi, Farhod juda qo'rqqoq ekan,- dedi Rustam.

-Rustam, Farhod hammadan zor ekan,-dedi oyisi.

**Undalma nima?** Bilimlarini aniqlashda ,,Tarmoqlash,, usulidan foydalaniladi.

Yozuvda vergul bilan ifodalanadi

Ot bilan ifodalanadi  
qaratilganini




Fikrning kimga  
bildiradi

Gap boshida, oxirida, o`rtasida keladi

Og`zaki nutqda undash ohangi

3. **Boshqotirma** Oquvchilarga mustaqil bajarish uchun boshqotirma beriladi. Unda bugungi dars mavzusi yozilgan bo`ladi.



O`quvchilar bosh qotirmani topadilar. Shu usulda mavzu nomi kelib chiqadi.

Savol-javob

Oktabr-qaysi fan oyligi? Qanday bayramni nishanlaymiz? Bu yil necha yil bo`ladi?

#### 4. Topshiriqlar:

1-guruh-alfavit qoidalari bo`yicha o`z ismini yoza olish qobiliyatlarini sinash.

## Gulchehra

6 20 11 28 4 7 17 1

2-guruh –Til haqida nima bilasiz?



O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

4-modda

Kishining ona tiliga hurmat – e'tibori shu tilda to'g'ri va ravon so'zlashi, chiroyli va savodli yozishida ko'rinadi. Inson o'z ona tilini qanchalik yaxshi bilsa, uning boyliklaridan shunchalik bahramand bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. Shuning uchun har yili 21-oktabrni til bayrami sifatida nishonlaymiz. Bu yil 24 yil, ya'ni muchal to'yi.

O'zbek tili uzoq va boy tarixga ega. Tilimiz rivojida

M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, A.Yugnakiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi ajdodlarimizning xizmatlari kattadir. Ayniqsa, A.Navoiy "Xamsa", dek buyuk asar yaratib, o'zbek tilining shakillanishiga bebaho hissa qo'shdi.



Mustaqillik yillarida ona tilimiz har jihatdan boyidi rivojlandi.

Ayrim shahar, tuman va mahallalarning qadimiy nomlari o'zbekcha yuritila boshladi.

3-guruh darslikdagi 72-mashqni bajaradilar. Ular, **o'quvchilar buvi**, so'zlarini undalma vazifasida, boshi, oxiri, o'rtasi} qo'llab, gaplar tuzib yozadilar.

**5 Mustahkamlash** 73-mashq

Matnni o'qib, sarlavha topish, undalmali gaplarni ko'chirib yozish.

3-guruh 1-qism

2-guruh 2-qism

1-guruh aka, ustoz soʻzlarini undalma vazifasida qoʻllab gaplar tuzib yozadilar.

**6 Yakunlash.** Undalma ishtirok etgan gaplar tuzish

1-guruh Gap boshida

2-guruh Gap oxirida qoʻllab, gap tuzish.

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.

Ona tilini chuqur bilgan kishi Vatani tarixini ham yaxshi biladi. Tilga eʼtiborli boʻlish, uning sofligini saqlash va xushmuomala boʻlish insonning ziynatidir.

Shu bilan birga chet tillarni bilish bugungi kun yoshlari uchun juda zarur. Qadimiy kitob – “Avesto”da shunday jumlar bor: “Men oʻz Vatanini himoya qila oladigan va koʻp tillarni egallagan farzandlarimni sharaflayman,,

Til haqida hikmatlar sheʼrlar



Урумчи. «Авесто» ёдгорлиги

**7 Uy vazifa:** 74-mashq

**8 Baholash**

***Chirchiq shahar 6-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabining oily toifali boshlangʻich sinf oʻqituvchisi Ergashova Gulchehra***

